



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazorati mavjudligi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'oyozlar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022. 25.06. da topshirildi. O'fset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasi-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCT» MCHU bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayruti » Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narsada.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti – 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq – komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonant testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq – behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi – shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi – jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalinishi	70
Dildora Yorbulova. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi – xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

SO'ZNING ASL MA'NOSI – SHOIRNING ASL DARDI

Adiba DAVLATOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Abdulla Oripov "Sharqiy Turkiston" she'rini yozgani-da sobiq ittifoq deb atalgan katta bir geomakonning vakili o'laroq Urunchiga ilk bor safar qilgan edi. O'zbekning tilini, din-u e'tiqodini, milliy tuyg'ularini toptagan mustamlakachilik siyosati, mustabid tuzum inqirozga yuz tutgan, istiqloq epkinlaridan darak beruvchi o'zgarishlar bo'y ko'rsatayotgan bir kezda ijodkor qondosh, dindosh birodarlari yurtiga mehmonga boradi. Toshkentdan samolyotga o'tirgunga qadar tishidan timog'igacha qattiq tekshiruvdan ruhan ezilgan shoir Sharqiy Turkistonda ham ayni holatni ko'rib kuyinadi.

Inson qachonki o'zi yashab turgan muhitdan bir qadar yiroqqa borsa, unda qiyoslash imkonini paydo bo'ladi. Aks holda o'qiganlari va eshitganlaridan hosil bo'lgan tasavvurlar olamida yashaydi. Abdulla Oripov ulug' shoir, faylasuf inson sifatida turkiylar tarixini juda yaxshi o'rgangan, teran bilgan. Lekin ana shu safari bois turklarning ajralmas bo'g'ini bo'lgan uyg'ur xalqining turmush tarzi, orzu-o'yli, hasrat-u armonlari bilan yaqindan tanishgan: *Men seni avval boshdan yetuk deb o'ylagandim. Bobolardan qolgan bir, Bitik deb o'ylagandim. Oqsoq bo'lsang-da, seni Tetik deb o'ylagandim, Sho'rginang qursin sening, Jonim Sharqiy Turkiston, Begona emas mening Qonim, Sharqiy Turkiston.*

Abdulla Oripov uyg'ur birodarlarga murojaat qilgan ekan, men-u oyoq-qo'li bandi etilgan edim, qanday baxtsizlikli, sizlarda ham tanish manzara, deya g'amga botadi. Musulmon Sharqi, jumladan, turkiy xalqlar boy tarixi, adabiy, ma'naviy merosi bilan dunyo tamadduni-ga munosib hissa qo'shgani ayni haqiqat. Qadimiy davlatchilik tarixiga ega bo'lgani, ilm-ma'rifat beshigi sanalgani rost. Lekin turkning bosh bo'g'ini bo'lgan o'zbek xalqining benazir merosi, bobolardan qolgan nodir bitiklari poymol etildi. Shoir balki sovetlar hukmi yetib bormagan diyordlarda qondoshlarining vaziyati yaxshidir, deb umid qilgan. Lekin qoni bir, joni bir uyg'urning holi bizdan-da xor-u xarobliligi ko'rib, bir dardi mingga aylangan. Cho'ng dard-u iztirobi, zalvorli fikrlari she'r bo'lib qog'ozga to'kilgan.

O'zbek tilidagi "gina", "kina", "qina" qo'shimchasi erkalash, achinish ma'nosida qo'llanilishi teran ilmiy asoslarga ega. Masalan, "Mittigina qizaloq", "jajigina bolakay", "puchuqqina" kabi birikmalar erkalash ma'nosini anglatadi, "shiringina", "oppoqqina", "yumshoqqina" kabi sifatlar ozaytirma darajani, "esizgina", "sho'rlikkina" so'zlari achinish, rahm-shafqat tuyg'ularini ifodalaydi. She'r matnida shoir "gina" qo'shimchasi orqali aynan achinish, kuyinish ma'nolarini aks ettirgan. U uyg'ur birodarlarini, Sharqiy Turkistonni "jonim" deydi. Jon – insonga ato etilgan eng aziz ne'mat, odam tirikligining belgisi. "Jon Vatan", "jonim bolam", "yori jonim" so'zlarida jon kabi azizlikka ishora bor. Shoir

"jon" so'ziga "im" egalik qo'shimchasini qo'shish orqali Sharqiy Turkistonni ham o'zining joni qadar suyuqli deb bilishini ifoda etadi. "Sho'rginang qursin" birikmasidan keyin qo'llangan "jonim" so'zi rahm-shafqat ma'nosini yanada kuchaytirishi Tangri Taolo aql-u zako ato etgan har bir insonga ayon. Tafakkur ko'zgusini zang, ko'ngil ko'zini g'ubor qoplagan kimsalargina buni fahmlamasligi mumkin. She'rning mana bu satrlarida, shu jihatdan, qardoshiga shafqat, kuyinchaklik kabi o'zbekka xos fazilatlar aks etgan.

Hasad degan shum raqib millatning ulug' shoiri Abdulla Oripovni bir umr ta'qib qilgani sir emas. Vafotidan keyin ham ko'ngli hasad va adovat g'uboridan kirlangan kimsalar malomat toshlarini o'tishda davom etayotgani esa achinarli holdir. So'zni his etish, adabiyotni idrok etish baxtidan mosuvo kimsalardan biri Internet orqali "Sharqiy Turkiston" she'rini g'aynilik bilan o'z qora niyatiga moslab "tahlil" etishga urindi. Bu orqali fikrlash tarzi nechog'liq nochor ekanini butun dunyoga namoyish etdi. Holbuki, ustoz Abdulla Oripov "Na o'tay onani tanimay qolibsan sen" misralari orqali qondosh uyg'ur xalqini malomat qilmagan. Aksincha, buyuk ajdodlari merosidan qadam-baqadam uzozlashtirilayotgan, tafakkuriga kishan solinayotgan qardoshining qisimatli vositasida o'z xalqining hasratli kechmishini yodga olayotir. Islom ma'rifati hamda buyuk Navoiy dahosini anglamay o'sayotgan avlodlar paydo bo'layotganidan iztirob chekayotir.

Hasratli o'ylar talqin etilgan ushbu satrlar avvalgi sakkiz misraning mantiqiy davomidir. Ya'ni millat buyuk ajdodlari yo'lini munosib davom ettira olmayotgan, taraqqiyotdan necha asrlar ortda qolayotgan bir kezda, farzandlarning ona tilini utushid darajasiga tushishidan ortiqroq azob bo'lmasa kerak. She'r degani ochiq-oshkor ko'rinib turgan ma'nonigina anglatmaydi. Unda matnosta ma'nolar ham aks etadi. Abdulla Oripovday buyuk iste'dod egalariining asarlarida esa bir necha qavat ma'no qatlamlari bo'ladi. "Ohorli mazmun, vazn, qofiya va badiiy san'at mukammalligi Abdulla Oripovning g'azalnavislikda hazrat Navoiy san'atxo-nasidan bahra ola bilgan baxtli ijodkor ekanini isbotidir". [1: 123] Jumladan, "Dehqonsan-u zaminga Biror nihol suqmaysan" satrlarida, zohiran shunday tuyulsa-da, gap dehqonchilik haqida ketayotgani yo'q. She'riyatda majoz til bilan so'ylanadi. Bu satrlarda uyg'ur degan ulug' xalqning hayot tarzi, tarix va taqdir hukmiga ko'ra, bu millatning aslyi tabiatiga – nodir iste'dodiga munosib bo'lmagan darajaga tushgani majoz vositasida iztirob bilan talqin etilgan. Dehqonning asl kasbi zaminga nihol qadash bo'lsa-yu, bunga imkon topmasa... Fojia bundan ortiq bo'lishi mumkinmi?! Shoir ushbu satr orqali dunyo tamadduniga buyuk mutafakkirlarni yetkazib

bergan xalqning ilm-u ifronidan butunlay benasib qolganiga ishora qilgan. "Sho'rginang qursin" degan jumla haqoratni emas, hamdardlikni anglatadi. Ushbu ibora ilojisiz qolindaga, eng yaqin kishisiga ko'mak berishdan o'zib holga tushilganidagina qo'llaniladi. Buni anglash uchun o'zbekning ruhiyatini, o'zbek tilining tabiatini nainki aql bilan, ko'ngil bilan ham his etmoq zarur.

Shoir she'ring keyingi misralarida tarixi buyuk bir elning bu ahvolda tushishi bilan bog'liq ob'yektiv va sub'yektiv sabablarni teran badiiy talqin etadi.

Birinchi misradagi "iz" – aytg'ochki. Ya'ni hokim millat uyg'urning uyiga kelgan mehmonning har bir so'zi, har bir harakatini nazorat qilganiga ishora. Erkini bu darajada boy bergan millat g'ururidan, o'z aytar so'zidan ayrilishi esa isbot talab qilmaydi. "Gohi-gohi shoirning Yig'lab turgan ko'zi bor" – bu satrlarda xalqning bunalib nochor holatga tushishidan nainki zohir ko'zi, balki ko'ngil ko'zi bilan ham hasrat yoshlarini to'kkan millatparvar uyg'ur shoirlarining achchiq qismatiga ishora etilgan. Vatani va millati g'amida kuygan ana shunday shoirlardan biri turkiylarning qutlug' udumiga ko'ra Abdulla Oripovni uyida mehmon qilgan, "Sharqiy Turkiston" she'ri yozilgan xonadon sohibi Bug'do Abdulla edi. Bu esa, ushbu she'ring har bir satri yurak qoni bilan, uyg'ur qardoshlarimiz holiga kuyinish va ularga og'alik mehri bilan yozilgani isbotidir.

"Ha, bir zamon sening ham Yurgan yo'ling oq edi" – bu satrda Sharqiy Turkistonning mustaqil davlat va uyg'ur xalqining ozod millat bo'lgan shonli davrlariga ishora qilingan. "Lekin biroq u dedi, Bunisi bundoq dedi" misrasida qardoshining holiga kuyingan ulug' shoirning hasrati aks etgan. Ya'ni ozod va hur uyg'ur og'zibirik qila bilmadi, o'zaro ahil-ittifoq bo'la olmadi. Ichki adovat va bir-birini anglamaslik uning erkini boy berishining asosiy sabablaridan bo'lgani iztirob bilan ifodalangan ushbu satrda. "Rahmon osh pishirganda Oqibat Shayton yedi" – bu ifoda Abdulla Oripovning teran hayotiy fikrni chuqur falsafa va ochorli badiiyat uyg'unligida betakror talqin eta olishidan dalolat beradi. Rahmon osh pishirishi – uyg'urning buyuk arbovi va vatanparvar farzandi, XX asrning benazir allomasi Alixonto'ra Sog'uniy Allohning irodasi bilan mustaqil uyg'ur davlatini barpo etganiga ishora. Lekin, afsuski, bu osh Shaytonning nasibasi ekan. Ya'ni oqko'ngil va sodda uyg'ur bu davlatni saqlab qola bilmadi, mustaqilligini boy berdi – mana, buyuk millatparvar shoir Abdulla Oripov nima demochi!

Keyingi misralar shoirning yuksak tafakkuri darajasidagi keng va teran mazmun talqin etilgani bilan ahamiyatlidir. Shoir endi uyg'urning shonli o'tmishi va Sharqiy Turkistonga safari davomida o'zi bevosita guvohi bo'lgan XX asr so'ngidagi aynanchi hayotini muqoyasa etadi. Ikki birodar xalqning oydin yo'lini, oydinlarini, og'zularini istibod degan yuho o'z domiga torganini iztirob bilan misralar zahiriga joylaydi. Shu manzaraning shohidi bo'lib, ichida yashab ezilgan,

Sharqiy Turkistonda ahvol yaxshiroq bo'lsa kerak, degan umidlar bilan yurgan shoir ko'nglida yuksak ideal va real voqeik to'qnashuvidan cho'ngil armon tug'ildi. Qardoshining achchiq qismatiga achinish tuyg'ularini hasrat bilan she'rga soladi.

Inson qachonki boshqalarning ahvolidan o'ta darajada ta'sirlansa, ruhiyatida siniqlar, yoriqlar paydo bo'lsagina, bu azoblar g'irayga, yig'iga aylanadi. Shoir ham birodarlari ahvolini ko'rib kuyunadi, nola chekadi. Uyg'ur qondoshini jigariga, o'zbekni esa yurakkina mengzaydi. Odatda, eng yaqin kishilargagina "jigarim" deb murojaat etiladi. Abdulla Oripov jigarlariga, qondosh-qardoshlariga amaliy yordam ko'rsatishga o'zligini his etar ekan, ilkidagi yagona madad – duo ekanligini oshkora yozadi. Agar Alloh nasib etsa, Ka'bada iqbolning so'rab imdod so'rayman, deb yaxshi niyat qiladi. Xalqimizda "She'rd a hikmat bor" degan ajoyib naql bor. Qarangki, shoir she'r yozilganidan roppa-rosa bir yil o'tib, Ka'batullohni ziyorat qilish baxtiga musharraf bo'ladi.

Shoir deyarli har bir she'ri finalida eng ulug' maqsadini, teran falsafiy konsepsiyasini yuksak poetik darajada ifodalashga odatlagan. Bu diyor bag'rida ne-ne zakiy insonlarning, daholarning e'tibordan chetda qolgani va falakning bu "o'yin"i davom etayotganidan qalbi larzaga keladi. Yana bir ayon haqiqat shundaki, bunday daholar qismatdan diydio qilisni or deb biladilar. Holbuki, erksizlik ayt olgan davrlarda oddiy xalqning dardini kim ham eshitadi. Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriyalarning taqdiri qanday kechgan ma'lum-kul!

Xulosa qilib aytganda, "Sharqiy Turkiston" she'ri majoz yo'li bilan o'sha davrda aytish imkonsiz bo'lgan hayot haqiqatini, shoir ideali va real voqeik ziddiyatini betakror badiiyat vositasida ifoda etgani jihatidan Abdulla Oripov she'riyatida alohida o'rinni tutadi. Fitrat "Hind itxolchilari", "Chin sevis", Avloniy "Portugaliya inqilobi" asarlarida badiiy adabiyotga xos makonni ko'chirish usulidan foydalanib, Turkiston hayotini, o'zbek xalqining orzu-armonlarini tasvirlagan ma'lum, "Abdulla Oripovning bir qator she'rlari borki, ularda ba'zan oddiy, ko'z ilg'amas, bir qarashda uncha muhim bo'lib ko'rinsa bermaydigan axloqiy masalalar olg'a suriladi va shoirnana hal qilib beriladi". [2: 39] Ayni badiiy usulni yuksak mahorat bilan qo'llagan Abdulla Oripov ham Sharqiy Turkiston misolida O'zbekiston va qardosh uyg'urning istiqloli, ikki qardosh xalqning ozod va erkin zamonlarga yetishi haqidagi orzularini she'rga aylantirgani ayni haqiqatdir. Shuning o'ziyoq "Sharqiy Turkiston" she'rining ijtimoiy-ma'rifiy va badiiy-estetik qimmatini nechog'liq baland kelishi isbotidir. "Haqiqiy biografik tadqiqot yuzaga kelishi uchun tadqiqotchi ijodkor ruhiyatiga kirishi, uning turli qirralarini ko'rsata bilishi, bu insonni harakat qilishiga, gapirishiga, nafas olishiga majbur etishi, eng muhimi, uni oila davrasida, o'ziga xos odatlari bilan tasavvur eta olishi lozim". [3: 22]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
2. Qo'zjonov M., Meni S. Abdulla Oripov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
3. Juraqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006.